

## RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA KLINIK-MADANIY KONSEPTLAR VERBALIZATSIYASINING KOGNITIV-PRAGMATIK TAHLILI

**Muazzamxon Abdurasulova,**

*Qo‘qon universiteti Andijon filiali, Tibbiyotda tillarni o‘qitish kafedrasida o‘qituvchisi*

*G-mail:abdurasulovamuazzam0@gmail.com*

*ORCID: 0009-0004-1322-8773*

**Annotatsiya.** Maqolada rus va o‘zbek tillaridagi klinik-madaniy konseptlarning (kasallik, sog‘liq, og‘riq va b.) verbalizatsiyasi kognitiv-pragmatik jihatdan qiyoslanadi. Tadqiqot mazkur konseptlar tibbiy mazmundan tashqari, milliy-madaniy qadriyatlarini ham aks ettirishini ko‘rsatadi. Natijalar tibbiy diskursni tahlil qilish hamda tarjima amaliyotida madaniy tafovutlarni hisobga olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar,** konsept, verbalizatsiya, klinik leksika, kognitiv-pragmatik tahlil, qiyosiy tilshunoslik.

**Аннотация.** В статье с когнитивно-прагматических позиций сопоставляется вербализация клинико-культурных концептов (болезнь, здоровье, боль и др.) в русском и узбекском языках. Исследование показывает, что данные концепты отражают не только медицинский смысл, но и национально-культурные ценности. Результаты значимы для анализа медицинского дискурса и учета культурных различий в переводе.

**Ключевые слова,** концепт, вербализация, клиническая лексика, когнитивно-прагматический анализ, сопоставительная лингвистика.

**Abstract:** The article compares the verbalization of clinical-cultural concepts (disease, health, pain, etc.) in Russian and Uzbek languages from a cognitive-pragmatic perspective. The study shows that these concepts reflect not only medical meanings but also national and cultural values. The results are significant for the analysis of medical discourse and for taking cultural differences into account in translation practice.

**Keywords:** concept, verbalization, clinical vocabulary, cognitive-pragmatic analysis, comparative linguistics.

**Kirish.** Zamonaviy tilshunoslikda inson tajribasini til orqali anglash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, tibbiy muloqotda qo‘llanadigan leksik birliklar inson tanasi, ruhiy holati, ijtimoiy munosabati va madaniy qadriyatlarini birlashtiradi. Shuning uchun klinik leksikani faqat terminologik tizim sifatida emas, balki konseptual va pragmatik birlik sifatida o‘rganish zarur. Rus va o‘zbek tillarida kasallik va sog‘liq bilan bog‘liq so‘zlar ko‘p hollarda o‘xshash denotativ mazmunga ega bo‘lsa-da, ularning qo‘llanishi, baholovchi ma‘nosi, metaforik kengayishi va muloqotdagi vazifasi turlicha namoyon bo‘ladi. Masalan, rus tilidagi *боль* so‘zi jismoniy og‘riq bilan birga *душевная боль* birikmasida ruhiy iztirobni bildiradi. O‘zbek tilidagi *dard* esa kasallik, g‘am, muhabbat iztirobi va hayotiy tashvish kabi bir nechta semantik qatlamlarni qamrab oladi. Bu holat klinik-madaniy konseptlarning verbalizatsiyasi til va madaniyat kesishmasida shakllanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi rus va o‘zbek tillarida klinik-madaniy konseptlarning verbalizatsiya usullarini aniqlash, ularning kognitiv modeli va pragmatik vazifasini qiyosiy asosda yoritishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun klinik leksikaning terminologik va xalqona qatlamlari ajratildi, konseptlarning metaforik kengayishi kuzatildi, shifokor-

bemor muloqotidagi nutqiy birliklarning kommunikativ qiymati tahlil qilindi. Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, klinik-madaniy leksika termin, konsept, freym, metafora va pragmatik vazifa birligida ko‘rib chiqiladi. Bunday yondashuv tibbiy tarjima, tibbiy nutq madaniyati va ikki tilli terminografiyada qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada konsept, metafora va freym nazariyalari klinik-madaniy leksikani tahlil qilishda muhim asos hisoblanadi. R. Langacker kognitiv grammatika orqali til va tafakkur bog‘liqligini yoritadi, G. Lakoff esa metafora orqali abstrakt tushunchalarning (kasallik, og‘riq, sog‘liq) inson tajribasi asosida ifodalanishini ko‘rsatadi. C. Fillmore freym semantikasi orqali tibbiy konseptlarning vaziyat va ishtirokchilar tizimida shakllanishini izohlaydi. P. Faber terminlarni kognitiv nuqtai nazardan o‘rganib, ularning ortidagi bilim strukturasi e‘tibor qaratadi. Umuman, ushbu manbalar klinik-madaniy konseptlarni kognitiv-pragmatik jihatdan tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Konsept tushunchasi kognitiv tilshunoslikda inson ongidagi bilim, tajriba va baholash birliklarini ifodalovchi markaziy kategoriya sifatida qaraladi.[1] Metaforik tafakkur nazariyasiga ko‘ra, inson murakkab va mavhum holatlarni tanish tajriba orqali anglaydi.[2] Klinik leksikada bu xususiyat yaqqol ko‘rinadi, kasallik “dushman”, davolash “kurash”, sog‘ayish esa “tiklanish” sifatida konseptuallashadi. Freym semantikasi esa har bir leksik birlik muayyan vaziyat, ishtirokchi, harakat va baho tizimi bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.[3] Terminologiyani kognitiv nuqtai nazardan o‘rganishda termin ortidagi domen bilimlari va konseptual bog‘lanishlarni aniqlash muhim sanaladi.[4] Madaniy semantika tibbiy nomlarning milliy qadriyatlar bilan bog‘lanishini yoritishga yordam beradi,[5] leksik semantika esa birliklarning denotativ va konnotativ qatlamlarini farqlash imkonini beradi.[6] Lingvokulturologik yondashuv klinik so‘zlarning madaniy xotira va nutq odobi bilan aloqasini ko‘rsatadi.[7] O‘zbek kognitiv tilshunosligi doirasida konsept va tafakkur munosabati til birliklari orqali ochib beriladi.[8] Ushbu maqolada qiyosiy-semantik, komponent, freym, diskursiv va pragmatik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlillar va natijalar.** Tahlil shuni ko‘rsatadiki, rus va o‘zbek tillarida klinik-madaniy konseptlar bir necha darajada verbalizatsiyalanadi. Birinchi daraja bevosita terminologik nomlashdir. Rus tilidagi *диагноз, терапия, симптом, давление, мемпература* kabi birliklar o‘zbek tilida *tashxis, davolash, simptom* yoki *belgi, qon bosimi, harorat* shakllarida ifodalanadi. Bu birliklarning asosiy vazifasi klinik aniqlikni ta‘minlashdir. Ular ko‘proq rasmiy tibbiy diskursda qo‘llanadi va emotsional bahodan nisbatan xoli bo‘ladi. Shu bilan birga, terminlarning xalq nutqiga o‘tishi ularni pragmatik jihatdan o‘zgartiradi. Masalan, *температура* atamasi o‘zbek og‘zaki nutqida ko‘pincha *isitma* bilan almashadi; rus tilida *давление* so‘zi bemor nutqida qon bosimining ko‘tarilishi yoki pasayishini qisqa ifodalovchi belgi sifatida ishlatiladi.

Ikkinchi daraja xalqona va madaniy nomlash bilan bog'liq. O'zbek tilida *dard*, *betoblik*, *holsizlanish*, *ko'ngil aynishi*, *mador qurishi*, *shifo topish* kabi birliklar bemorning subyektiv tajribasini ifodalaydi. Rus tilida *недомогание*, *слабость*, *ломота*, *тошнота*, *выздоровление* kabi birliklar shunga yaqin vazifani bajaradi. Biroq o'zbek tilidagi *shifo* so'zi faqat tibbiy sog'ayish emas, balki ruhiy taskin, duo, mehr va umid bilan bog'liq madaniy ma'nolarni ham anglatadi. Rus tilidagi *лечение* esa ko'proq tibbiy jarayon, dori-darmon va muolaja tizimini bildiradi. Demak, *shifo* konsepti o'zbek lingvomadaniyatida tibbiy, diniy-axloqiy va emotsional komponentlarni birlashtiradi.

Uchinchi daraja metaforik verbalizatsiyadir. Har ikki tilda kasallik ko'pincha "bosuvchi kuch" yoki "hujum qiluvchi dushman" sifatida tasvirlanadi, *болезнь одолела*, *бороться с болезнью*; *dard bosdi*, *kasallik bilan kurashmoq*. Bu metaforalar bemor holatini passivlik va qarshilik munosabati orqali tushuntiradi. Shuningdek, sog'liq "muvozanat" va "butunlik" sifatida talqin qilinadi, rus tilida *восстановить здоровье*, o'zbek tilida *sog'liqni tiklash*, *o'ziga kelish*. Bunday ifodalar klinik konseptlarning tanaviy tajriba asosida shakllanishini tasdiqlaydi. Metaforalar tibbiy muloqotda tushuntirishni osonlashtiradi, ammo ba'zan bemorda qo'rquv yoki ruhiy bosimni kuchaytirishi ham mumkin.

To'rtinchi daraja pragmatik verbalizatsiyadir. Klinik muloqotda so'z tanlovi bemor va shifokor o'rtasidagi ijtimoiy masofa, ishonch, hurmat va emotsional holatni belgilaydi. Rus tilida *врач* so'zi rasmiy va neytral bo'lsa, *доктор* murojaati ko'pincha muloqotda yumshoqroq pragmatik tusga ega. O'zbek tilida *shifokor* rasmiy, *do'xtir* xalqona, *tabib* esa an'anaviy davolash madaniyati bilan bog'liq. Bemor shikoyatini aytganda ham farq kuzatiladi, rus tilida *у меня болит сердце* shakli aniq fiziologik holatni bildiradi; o'zbek tilida *yuragim og'riyapti* iborasi klinik belgidan tashqari ruhiy bezovtalikni ham bildirishi mumkin. Shu bois tarjimada yoki tibbiy muloqotda bunday birliklarning faqat lug'aviy ekvivalenti emas, balki pragmatik vazifasi ham hisobga olinishi kerak.

Beshinchi daraja baholovchi va etnomadaniy qatlamdir. O'zbek tilida bemorga nisbatan *tuzalib keting*, *dardingizga shifo bersin*, *ko'nglingizni cho'ktirmang* kabi iboralar tibbiy axborotdan ko'ra ko'proq ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vazifasini bajaradi. Rus tilida *выздоровливайте*, *не болейте*, *держитесь* kabi birliklar shunga yaqin pragmatik funksiyaga ega. Ammo o'zbek nutqida duo, mehr, sabr va umid komponentlari kuchliroq seziladi. Bu esa klinik-madaniy konseptlarning milliy kommunikativ odob bilan bog'langanini ko'rsatadi. Shuningdek, o'zbek oilaviy muloqotida bemorning holati ko'pincha yaqinlar tomonidan birgalikda muhokama qilinadi; rus institutsional diskursida esa bemorning shaxsiy shikoyati va tibbiy kartadagi qaydlar ko'proq markazda turadi.

Qiyosiy tahlil natijasida rus va o'zbek tillarida klinik-madaniy konseptlar umumiy universal asosga ega ekani aniqlandi. Inson tanasi, og'riq, kasallik, davolanish, sog'ayish kabi tajribalar har ikki tilda mavjud. Biroq ularning verbalizatsiyasi milliy dunyoqarash, tibbiy madaniyat, diniy tasavvur, ijtimoiy munosabat va nutqiy an'analarga ko'ra

farqlanadi. Rus tilida klinik konseptlar ko‘proq institutsional, diagnostik va protseduraviy qatlamda izohlanadi. O‘zbek tilida esa klinik konseptlar ko‘pincha oilaviy, axloqiy, ruhiy va madaniy munosabatlar bilan uyg‘unlashadi. Bu farq tibbiy tarjima, shifokor-bemor muloqoti va terminografiya uchun muhimdir. Taklif etilayotgan kognitiv-pragmatik model besh bosqichni qamrab oladi, konseptni aniqlash, freymni belgilash, verbal birliklarni tasniflash, pragmatik vazifani ko‘rsatish va madaniy konnotatsiyani izohlash.

Klinik-madaniy konseptlarni bunday tartibda tahlil qilish ikki muhim natija beradi. Birinchidan, terminning leksik ma‘nosi bilan bemor idrokidagi ma‘nosi doimo mos kelmasligi aniqlanadi. Masalan, *operatsiya* yoki *операция* birliklari shifokor uchun texnik amaliyot bo‘lsa, bemor ongida xavotir, og‘riq, tavakkal va ishonch konseptlari bilan bog‘lanadi. Ikkinchidan, tarjimada bevosita ekvivalent yetarli bo‘lmagan holatlar ko‘rinadi. O‘zbek tilidagi *ko‘nglim behuzur* iborasini rus tiliga faqat *тошнота* deb berish ba‘zan emotsional holatni qisqartirib yuboradi; aksincha, *плохое самочувствие* birligi o‘zbekchada *ahvolim yaxshi emas, o‘zimni noxush his qilyapman* shakllarida kontekstga qarab beriladi.

Modelning amaliy qo‘llanishi quyidagicha ko‘rinadi, avvalo birlikning tibbiy ma‘nosi aniqlanadi, keyin u ishtirok etadigan klinik vaziyat belgilanadi, undan so‘ng bemor nutqidagi emotsional va madaniy yuk baholanadi. Masalan, *shikoyat* va *жалоба* birliklari hujjatda neytral bo‘lsa, bemor bilan muloqotda noqulay ohang uyg‘otishi mumkin. Shuning uchun ayrim vaziyatlarda *nimadan bezovtasiz?* yoki *что вас беспокоит?* kabi yumshoqroq formulalar muloqot samaradorligini oshiradi. Bu esa lingvistik tahlilning amaliy tibbiy etika bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Rus va o‘zbek tillarida klinik-madaniy konseptlar verbalizatsiyasi ko‘p qatlamli jarayon bo‘lib, unda terminologik aniqlik, xalqona nomlash, metaforik tafakkur, pragmatik niyat va madaniy baho birgalikda ishtirok etadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, *боль – og‘riq, болезнь – kasallik, лечение – davolash, здоровье – sog‘liq* kabi birliklar tashqi jihatdan muqobil ko‘rinsa-da, ularning konseptual maydoni va kommunikativ vazifasi to‘liq bir xil emas. O‘zbek tilidagi *dard* va *shifo* birliklari keng madaniy-konnotativ mazmunga ega bo‘lib, rus tilidagi *боль, недуг, лечение* birliklari bilan qisman kesishadi. Shu sabab klinik leksikani tarjima qilish, o‘qitish va tahlil qilishda kognitiv-pragmatik modeldan foydalanish samarali hisoblanadi. Mazkur model terminning ma‘nosini, freymdagi o‘rnini, metaforik asosini, kommunikativ vazifasini va madaniy bahosini bir butun holda ko‘rishga imkon beradi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda real shifokor-bemor dialoglari, tibbiy hujjatlar va ommaviy tibbiy matnlar korpusi asosida chuqurroq tadqiqot olib borish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Langacker R.W. *Foundations of Cognitive Grammar*. Vol. 1. Stanford, Stanford University Press, 1987.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. Chicago, University of Chicago Press, 1980.

3. Fillmore C.J. Frame Semantics // *Linguistics in the Morning Calm*. Seoul, Hanshin, 1982. P. 111–137.
4. Faber P. *A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language*. Berlin; Boston, De Gruyter, 2012.
5. Wierzbicka A. *Semantics, Culture, and Cognition*. Oxford, Oxford University Press, 1992.
6. Апресян Ю.Д. *Избранные труды. Т. 1, Лексическая семантика*. Москва, Языки русской культуры, 1995.
7. Маслова В.А. *Лингвокультурология*. Москва, Академия, 2001.
8. Сафаров Ш. *Когнитив тилишунослик*. Жиззах, Сангзор, 2006.

